

Seysmologik to'liqlarni aniqlashda ishlatiladigan qurilma yaratildi

Yangi qurilma muhandislik stansiyalari tarkibidagi seysmologik tadqiqotlarda, sanoat portlashlarida seysmoportlash to'liqlari ta'sirining intensivligini baholashda, ishlab chiqarishda obyektlarga mashinalar va mexanizmlardan kelayotgan vibrasion to'liqlar ta'sirini baholashda ishlatiladi.

Ushbu qurilma korpus, korpus qopqog'iga osilgan signallarni uzatish liniyasi bo'ylab ma'lumotlarga ishlov berish blokiga ulangan sezgir tenzoelementli yupqa elastik plastinadan iborat. Yupqa elastik plastinaning ikkinchi uchiga inersion massa biki mahkamlangan, tenzorezistor ko'rinishidagi sezgir tenzoelement esa yupqa elastik plastinaning o'rta qismiga mahkamlangan.

Qurilma O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T. Urazbaev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti mutaxassislari Sagdiyev Xamidulla, Teshaboyev Zoxidjon va Galiaskarov Viktorlar tomonidan yaratilgan.